


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil
« ____ » _____ dagi ____ - sonli buyrug'i bilan

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	10
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	11
	Bibliografik ma'lumotlar	12
	Kelishuv varog'i.....	13

1. Umumiy tavsifi

60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashgan (san'at, muhandislik) maktablar, o'rta maxsus va professional ta'lim o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq o'rta ta'limda tasviriy san'at va chizmachilik fanlari hamda kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

maktabdan tashqari ta'limda to'garak fanlari o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim tashkilotini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim tashkilotlari, oliy ta'lim tashkilotlarida (laborant, kabinet mudiri, tyutor sifatida), dizayn va raqamli media sohalarida, sanoat, ishlab chiqarish va arxitektura sohalarida, madaniyat, san'at va nashriyot sohalarida hamda mustaqil faoliyat va tadbirkorlik faoliyat yuritish kabi kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi;

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari (davlat va nodavlat);

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tizimidagi idoralar;

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, uning tizimidagi tashkilotlar va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;

Pedagogika va san'atshunoslik yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot markazlari.

Dizayn-studiyalar va ijodiy agentliklar;

Reklama agentliklari;

Nashriyotlar va matbaa korxonalari (kitob, jurnal dizayni va illustratsiyasi);

Ommaviy axborot vositalari (telekanallar, onlayn nashrlar) tahririyatlarining dizayn bo'limlari;

Brending va marketing agentliklari.

IT-kompaniyalar (veb-dizayn, mobil ilovalar uchun UI/UX dizayn bo'limlari);

Animatsion studiyalar.

Ishlab chiqarish korxonalarining dizayn bo'limlari (sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, mebel, qadoqlash dizayni);

Arxitektura va loyihalash byurolari (interyer, eksteryer va landshaft dizayni);

Qurilish kompaniyalarining loyiha-vizualizatsiya bo'limlari.

Muzeylar, san'at galereyalari va ko'rgazma markazlari (davlat va xususiy);

Teatrlar va kinostudiyalar (sahnalashtiruvchi rassom, dekorator, liboslar dizayneri sifatida);

Madaniyat markazlari va ijod uylari.

Xalqaro va mahalliy onlayn platformalar hamda frilans birjalari (Behance, Upwork, ijtimoiy tarmoqlar orqali);

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, pedagogika ta'lim fanlari yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash, tasviriy san'at va chizmachilik va kasbiy ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, ishlab chiqarish korxonalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va malaka talablarining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan

kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish;

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim tashkilotining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: o'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb

qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalarining ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tatbiq etish;

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishidagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalariga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lish;

global va mahalliy kreativ sanoatdagi eng yangi tendensiyalarni, bozor o'zgarishlarini, ilg'or texnologiyalarni (jumladan, sun'iy intellektning ijodiy sohalariga ta'siri) doimiy kuzatib borish, tahlil qilish va amaliy loyihalarda qo'llash;

dizayn va san'at mahsulotlarining potentsial iste'molchilarini, ularning ehtiyojlari va afzalliklarini, shuningdek, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish orqali bozorga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish;

turli manbalardan (ilmiy adabiyotlar, bozor hisobotlari, foydalanuvchi fikrlari) olingan ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, tanqidiy tahlil qilish va tadqiqot maqsadlari uchun qayta ishlash;

o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari (yangi metodika, dizayn yechimi, bozor strategiyasi) asosida ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini, maqolalarni tayyorlash hamda ularni ta'lim jarayoniga yoki real tijoriy loyihalarga samarali tatbiq etish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rnini va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy

merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Maktab ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, STEAM) joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari, asosiy maqsadlarini bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrlash bo'yicha o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishlari, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish, egallagan kompetensiyalarini qay darajada rivojlanganligini xalqaro tajribalar va tahlillar asosida takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

mutaxassisligi bo'yicha global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik, axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik;

muammo va vazifalarni tahlil qilish, nostandart yechimlar topish hamda yangi ijodiy g'oyalarni generatsiya qilish;

texnologiyalar, dizayn trendlari va mehnat bozori talablarining o'zgarishlariga tez moslashish, mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib borish;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

tasviriy san'at va chizmachilik darslarida texnika xavfsizligini ta'minlash;

akademik qalamtasvir va rangtasvir asoslarini (proporsiya, perspektiva, anatomiya, rangshunoslik) puxta egallaganlik; turli badiiy materiallar va texnikalarda erkin ishlash;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning shakllanganligi hamda uzoq vaqt davolanishni talab qiladigan o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun gospital pedagogika texnologiyalariga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik;

tasvir va dizaynda kompozitsiya, ritm, muvozanat, kontrast kabi fundamental tamoyillarni bilish va ularni amaliyotda qo'llay olish;

chizma geometriya va proyeksiyalash asoslarini bilish; 2D va 3D formatdagi texnik chizmalarni o'qish va CAD (Computer-Aided Design) dasturlarida yaratish;

jahon va milliy san'at, shuningdek, dizayn yo'nalishlari rivojlanish bosqichlarini bilish, uslublarni tahlil qilish va nazariy bilimlarni ijodiy amaliyot bilan bog'lay olish;

turli yoshdagi va o'zlashtirish darajasidagi o'quvchilarga tasviriy san'at va dizayn asoslarini o'rgatishning interaktiv metodikalarini egallaganlik;

vektorli va rastrli grafik redaktorlar (CorelDraw, Adobe Illustrator, Photoshop), 3D modellash (AutoCAD, 3ds Max) va sahifalash (masalan, Adobe InDesign) dasturlarida erkin ishlash;

loyihani rejalashtirish (maqsad, vazifa, muddatlarni belgilash), resurslarni taqsimlash, jarayonni nazorat qilish va yakuniy natijani o'z vaqtida taqdim etish;

tasviriy san'at va chizmachilik fanlarining o'qitish metodikasining rivojlanish tarixi, asosiy prinsiplari va qonuniyatlari, dolzarb muammolari, fanni o'qitishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, shuningdek, xususiy metodikaning o'ziga hos xususiyatlari, fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar ongi va qalbiga bilim, ko'nikmalarni shakllantirish yo'llariga oid bilimlar berish, tahliliy — tangidiy, ijodiy va va mustaqil fikr yuritish va o'rgatish, umumiy o'rta ta'lim maktablari geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini Davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - fanlardan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

60110500-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

1. Plener amaliyoti
2. O'quv tanishuv amaliyoti
3. Pedagogik amaliyot
4. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy Majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	QalamT11209	Qalamtasvir I	270	9	1,2
1.04	RangT11209	Rangtasvir I	270	9	1,2
1.05	ChizM1205	Chizmachilik I	150	5	2
1.06	ChizGeo11211	Chizma geometriya	330	11	1,2
1.07	O'RT1104	Amaliy o'zbek (rus) tili	120	4	1
1.08	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.09	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	Din1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.12	QalamT13410	Qalamtasvir II	300	10	3,4
1.13	RangT13409	Rangtasvir II	270	9	3,4
1.14	ChizM13410	Chizmachilik II	300	10	3,4
1.15	MKG1605	Muhandislik kompyuter grafikasi	150	5	4
1.16	TSFO'M1404	Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi	120	4	5
1.17	CHFO'M1504	Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi	120	4	5
1.18	RangT1504	Rangtasvir III	120	4	5
1.19	GTA1504	Grafik tasvirlash asoslari	120	4	5
1.20	Ink.GP1605	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	6
1.21	ABS15608	Amaliy bezak san'ati	240	8	5,6
		Jami:	3990	133	
2.00.		Tanlov fanlari	390	13	3-6
Kvalifikatsiya		Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi			
3.00.		Malaka amaliyoti	840	28	2, 4-6
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	5400	180	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Izoh: Belgilangan umumiy soat o'zgartirilmaydi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK:74

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talabi, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi, qalamtasvir, rangtasvir, chizmachilik, chizma geometriya, tasviriy san'at tarixi, tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi, chizmachilik fanini o'qitish metodikasi, grafik tasvirlash asoslari, muhandislik kompyuter grafikasi, amaliy bezak san'ati, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, malaka amaliyoti, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi.

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b.  Raxmanov

2025-yil « _____ » _____



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil « _____ » _____



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi

Respublika ta'lim markazi


Direktor v.v.b.  D.Norboyeva

2025-yil « _____ » _____



M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti


Rektor  G.Muxamedov

2025-yil « _____ » _____



M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor  J.Karshibayev

2025-yil « _____ » _____



M.O'.